

Date: 11th February-2026

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING BOSHQARISHDA
INNOVATION MEXANIZMLARINI ICHLAB CHIQISH VA
TAKOMILLASHTIRISH

Mamatqulov Eldor Nabijonovich

mamatkuloveldorbek4@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida to‘qimachilik sanoati korxonalarini samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot Namangan viloyati misolida olib borilib, hududdagi to‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida innovatsion boshqaruv modelini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования механизмов эффективного управления предприятиями текстильной промышленности в контексте инновационной экономики. Исследование проводилось на примере Наманганской области, анализировались организационно-экономические механизмы управления инновационной деятельностью, внедрения цифровых технологий, эффективного использования ресурсов и повышения конкурентоспособности текстильных предприятий региона. По результатам исследования были разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию модели инновационного управления.

Annotation. This article examines the issues of improving the mechanisms of effective management of textile industry enterprises in the context of an innovative economy. The study was conducted on the example of the Namangan region, analyzing the organizational and economic mechanisms for managing innovative activities, introducing digital technologies, effectively using resources, and increasing competitiveness at textile enterprises in the region. As a result of the study, scientifically based proposals and recommendations were developed to improve the innovative management model.

Kalit so‘zlari: innovatsion iqtisodiyot, to‘qimachilik sanoati, boshqaruv mexanizmlari, raqamli transformatsiya, Namangan viloyati.

Ключевые слова: Инновационная экономика, текстильная промышленность, механизмы управления, цифровая трансформация, Наманганский регион.

Key words: innovative economy, textile industry, management mechanisms, digital transformation, Namangan region.

Jahon iqtisodiyotida innovatsion rivojlanish omili sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Xususan, to‘qimachilik sanoati global bozor sharoitida yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish, eksport salohiyatini oshirish va texnologik yangilanishni jadallashtirish orqali barqaror rivojlanishni ta‘minlashga intilmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoati




Date: 11th February-2026



yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, hududlar kesimida sanoatni innovatsion asosda rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Namangan viloyati to'qimachilik sanoati korxonalari soni va ishlab chiqarish hajmi bo'yicha respublikaning muhim sanoat markazlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, mazkur hudud misolida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3,3 trln so'mdan (106,4%), 2025 yilda 4,3 trln.so'mga (107,3 %) ortdi. Xizmatlar hajmi 1,6 trln.so'mdan 2,1 trln.so'mga ortdi. Kambag'allik darajasi 4,6 foizdan 2,1 foizga qisqardi va tuman kambag'allikdan holi xududga aylandi. So'ngi ikki yilda 46 ming fuqarolarni bandligini ta'minlanib, ishsizlik darajasi 6,3 foizdan 3,5 foizga tushirildi. Sayxunobod" tajribasi asosida har bir mahallada 40 tadan jami 1 120 ta mikroloiyhalar amalga oshirilib, 2 240 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. "Uychi" tajribasi asosida tijorat banklari bilan hamkorlikda 72 ta uchrashuvlar o'tkazilib, 5 521 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. "Zarbdor" tajribasi asosida qiymati 118 mlrd.so'mlik 6 ta loiyhalar amalga oshirildi.



1-rasm. To'qimachilik sanoatida boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish

Ilmiy adabiyotlarda to'qimachilik sanoatida innovatsion faoliyatni boshqarish masalalari turli nuqtayi nazardan yoritilgan. Tadqiqotchilar innovatsiyalarni joriy etishda texnologik yangilanish, raqamli transformatsiya, ekologik barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish omillariga alohida e'tibor qaratadilar. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda sanoat 4.0 texnologiyalarini qo'llash, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va sun'iy intellektdan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholanadi. Mamlakatimizda sanoat, xususan to'qimachilik sanoatining rivojlanish xususiyatlarining nazariy va uslubiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida o'z aksini topgan. Ushbu strategiyada to'qimachilik sanoatining texnologik rivojlanish jarayonlari, innovatsiyalar va ular orqali biznes samaradorligini oshirishning asosiy tamoyillari ko'rib chiqilgan, jumladan, ishlab chiqarish hajmini 2 barobar oshirish va eksport salohiyatini 3 milliard AQSh dollaridan oshirish ko'zda tutilgan. Mahmudov (2020) to'qimachilik

Date: 11th February-2026



sanoatidagi zamonaviy texnologiyalarni, masalan, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari, robototexnika va raqamli dizaynlar kabi yangi metodlarni tahlil qiladi. Kitobda sanoatning global tendentsiyalariga e'tibor qaratilgan bo'lib, innovatsiyalarni joriy etishning iqtisodiy foydalari va samaradorlikni oshirishda qanday asosiy yondashuvlar mavjudligi yoritilgan. Bu asar to'qimachilik korxonalariga yangi texnologiyalarni joriy qilishda amaliy yondashuvlar, ularning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishda qanday ahamiyatga ega ekanligini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, Yusupov (2025) kichik va o'rta to'qimachilik korxonalarida innovatsion boshqaruv amaliyotlarini o'rganib, resurslar asosidagi nazariya va dinamik qobiliyatlar yondashuvlarini qo'llagan holda, O'zbekiston to'qimachilik sektorida liberallashtirishdan keyingi o'zgarishlarni tahlil qiladi, bu esa paxta xomashyosini 100% ichki qayta ishlash va eksportni 3,9 milliard AQSh dollariga yetkazishga olib kelgan. To'qimachilik sanoatida innovatsion faoliyatni samarali boshqarish metodologiyasini taqdim etadi. Ro'ziyev (2019) to'qimachilik korxonalari uchun innovatsion boshqaruvni amalga oshirishda zarur bo'lgan tizimli yondashuvlarni tavsiflaydi. Innovatsion boshqaruvning amaliy metodlari, shu jumladan resurslarni optimallashtirish, texnologik o'zgarishlar va ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Bu kitob, to'qimachilik sanoatida boshqaruv tizimini takomillashtirish, zamonaviy innovatsion usullarni ishlab chiqish va joriy etish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlarni beradi. To'qimachilik sanoatida raqamli transformatsiyaning o'рни va ahamiyati tahlil etilgan. Karimov (2022) yangi raqamli texnologiyalar, masalan, sanoat 4.0, IoT (Internet of Things), sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish kabi metodlarni sanoatdagi innovatsiyalarni boshqarishda qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Raqamli transformatsiya, o'z navbatida, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilashda katta rol o'ynaydi. Ushbu kitobda raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyasi, shuningdek, innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot mavjud. Shu bilan birga, so'nggi tadqiqotlarda kichik va o'rta korxonalar (KOK) da raqamli texnologiyalarni qabul qilishni ta'sir etuvchi omillar, jumladan, raqobat bosimi va hukumat yordami ko'rsatilgan, masalan, O'zbekiston to'qimachilik korxonalarida AI va IoT orqali risklarni boshqarish va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar. Shu bilan birga, hududiy sanoat rivojlanishida institutsional muhit va boshqaruv mexanizmlarining moslashuvchanligi yetarli darajada o'rganilmagan, ammo so'nggi tadqiqotlarda kichik va o'rta korxonalar (KOK) da raqamli texnologiyalarni qabul qilishni ta'sir etuvchi omillar, jumladan, raqobat bosimi va hukumat yordami ko'rsatilgan.

Date: 11th February-2026



2-rasm. Boshqarish mehanizmlarini takomillashtirish

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyatidagi to'qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, texnologik yangilanishning yetarli darajada tez amalga oshirilmasligi, boshqaruv qarorlarida raqamli ma'lumotlardan foydalanish darajasining pastligi va kadrlar salohiyatining cheklanganligi kuzatiladi. Shu bilan birga, ayrim korxonalarda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari va energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish hisobiga ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida to'qimachilik korxonalarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: – raqamli boshqaruv platformalarini joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish; – innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xususiy-investitsiya mexanizmlaridan keng foydalanish; – ilmiy-tadqiqot muassasalari va sanoat korxonalari o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish; – kadrlar tayyorlash va ularning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyati to'qimachilik sanoati korxonalarini innovatsion iqtisodiyot sharoitida samarali boshqarish hududning sanoat salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan takliflar boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish va korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy xulosalar hududiy sanoat siyosatini shakllantirishda va amaliy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Ismoilov A. S., (2019). To'qimachilik sanoatida innovatsiyalarni boshqarish. Toshkent. Isroilov A. K., (2022).

Date: 11th February-2026

3. Resurslarni boshqarish va innovatsion faoliyat. Farg'ona, Karimov I. M., (2022). To'qimachilik sanoatida raqamli transformatsiya. Toshkent.
8. Mahmudov, A. Raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. T.: Innovatsiya nashriyoti, 2020.
9. Yusupov, Sh. Biznes muloqoti va notiqlik san'ati. T.: Sharq, 2021.
10. Tursunov, H. Biznes boshqaruvi va kommunikatsiyalar. T.: Fan va texnologiya, 2018.
11. Rahimov, B. Korporativ boshqaruv va kommunikatsiya strategiyalari. T.: Iqtisodiyot, 2019.
12. Ro'ziyev, O'.M. Kasbiy kommunikatsiyalar asoslari. T.: Iqtisodiyot, 2019.
13. Izzatulla L. PROVIDING EFFECTIVE ACTIVITY OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE EDUCATIONAL SERVICES MARKET, DEVELOPING A DEVELOPMENT STRATEGY //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2023. – T. 17. – №. 01. – C. 9-14.
14. Nematillaevich L. I. Main characteristics, theoretical issues of effective management strategies in higher education //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – C. 97-101.
15. Nematillayevich L. I. et al. NORASMIY IQTISODIYOTDAN RASMIY IQTISODIYOTGA O'TISH: QIYINCHILIKLAR VA IMKONIYATLAR. – 2025.
16. Nematillayevich L. I. et al. TRANSITION FROM THE INFORMAL ECONOMY TO THE FORMAL ECONOMY: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES. – 2025.
17. Ne'matillayevich L. I. et al. MEHNAT BOZORIDA NORASMIY ISH O'RINLARINI KAMAYTIRISH HISOBIGA BANDLIKKA KO'MAKLASHISH YO'LLARI //AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 21-26.

